

**ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY**

journal homepage:

<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>**PROFESSIONALISMS IN ULUGBEK HAMDAM NOVELS AS A LINGOUCCULTUROLOGIC LEXION****Sh. Iskandarova***professor**Fergana State University**Fergana, Uzbekistan***M. Asatulloeva***Master's student**Fergana State University**Fergana, Uzbekistan***ABOUT ARTICLE**

**Key words:** professionalism, lingoucculturology, literary language, artistic speech, term, social dialect.

**Abstract:** This article defines the lingoucculturological meaning and functions of lexical units about professions in the novel by U.Hamdham.

**Received:** 18.02.23**Accepted:** 20.02.23**Published:** 22.02.23**ULUG'BEK HAMDAM ROMANLARIDAGI PROFESSIONALIZMLAR LINGVOKULTUROLOGIK BIRLIK SIFATIDA****Sh. Iskandarova***professor**Farg'ona davlat universiteti**Farg'ona, O'zbekiston***M. Asatulloeva***Magistratura talabasi**Farg'ona davlat universiteti**Farg'ona, O'zbekiston***MAQOLA HAQIDA**

**Kalit so'zlar:** professionalizm, lingvokulturologiya, adabiy til, badiiy nutq, atama, ijtimoiy dialekt.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada U.Hamdham romanlaridagi kasb-hunar leksikasiga oid birliklarning lingvokulturologik ma'no va vazifalari yoritilgan.

**ПРОФЕССИОНАЛИЗМ В РОМАНАХ УЛУГБЕКА ХАМДАМА КАК ЛИНГВОКУЛТУРОЛОГИЧЕСКИЕ ЕДИНИЦЫ**

**Ш. Искандарова**

профессор

Ферганский государственный университет

Фергана, Узбекистан

**М. Асатуллоева**

студент магистратуры

Ферганский государственный университет

Фергана, Узбекистан

---

## О СТАТЬЕ

---

**Ключевые слова:** профессионализм, лингвокультурология, литературный язык, художественная речь, термин, социальный диалект.

**Аннотация:** И статье определяются лингвокультурологическое значение и функции лексических единиц о профессиях в романе.

---

## KIRISH

Badiiy asar tili bilan badiiy nutq bir hodisa emas: badiiy nutq adabiy nutqning bir ko'rinishi, u, albatta, adabiy til me'yorlariga bo'ysundiriladi. Badiiy asar tili esa birmuncha erkin bo'lib, til me'yorlaridan chetga chiqish holatlari ham kuzatiladi. Badiiy asarda yozuvchining maqsad va xohishlaridan kelib chiqqan holda badiiy nutq bilan parallel tarzda kasb-hunarga oid so'zlar yoki ma'lum ijtimoiy dialektlar ham qo'llanadi.[2.118-b]

## ASOSIY QISM

Bizning kundalik hayotimiz turli kasb-hunarlar bilan uzviy bog'langan va ularning har biri o'ziga xos xususiyatlari bilan bir-biridan farqlanadi. Ana shu turli kasb-hunar egalari nutqida qo'llanuvchi birliklar kasb-hunar leksikasini tashkil etadi. Kasb-hunar leksikasi ijtimoiy mehnatning u yoki bu turiga, ishlab chiqarish, ilm-fan, adabiyot, san'at va hakazo sohalariga oid narsa-hodisa hamda tushuncha nomlaridir.[3.174-b] Kasb-hunar atamallari ham dialektizmlar singari nisbiy tushunchadir. Kasb-hunar atamallari shu kasb egasi qaysi sheva vakili bo'lsa, shu sheva leksikasi tarkibiga ham kirishi mumkin. Masalan, Farg'ona shevasiga mansub hunarmand ishlatadigan leksika Buxoro shevasida uchramasligi yoki boshqacharoq nomlanishi mumkin. Shuning uchun kasb-hunar leksikasi ikki hissa chegaralangan leksikani tashkil etadi. Bunday so'zlar badiiy asarlarda qo'llanganida lingvokulturologik ahamiyat kasb etadi.

Kasb-hunar leksikasidan badiiy asar tilida ma'lum uslubiy maqsadlarda foydalanish holatlari ham uchraydiki,[3.178-b] unda yozuvchi asar qahramonlariga aniq tavsif berishda, asardagi o'rnini belgilashda unumli foydalanadilar. Masalan:

*Ergash aka obro'li universitetlardan birida fizikadan dars beradi, fan nomzodi, bir necha qo'llanmalar, dovrug'i dunyoga ketgan ikki-uch kashfiyot, maqolalalar muallifi edi...*[23.109-b] Ushbu parchada fan nomzodi, qo'llanma, kashfiyot, maqola kabi professionalizmalarni qo'llash bilan asar qahramonining ilm darajasi, saviyasini aniq ochib bergan.

U.Hamdanning “Muvozanat” romanida ham kasb-hunar leksikasiga oid soʻzlar qoʻllangan. Asarni oʻqish davomida bunday soʻzlarni izohlashga harakat qilamiz.

*Oshxonada pishayotgan ovqatning xush boʻyi karidor boʻylab taralib kelib, dimogʻini qitiqladi. Ogʻzi soʻlakka toʻldi. Chiday olamay oshxona tomon yurdi. Ikki gazoʻchoqda bittadan qozon qaynayotgandi.* [23.137-b]

*Gulshoda oʻchoqqa oʻt qalab qozonni osdi. Soʻng toʻldirib suv quydi-da, bir chimdim tuz bilan yeti-sakkiz dona kartoshka tashladi...* [23.197-b]

Asardan olingan ushbu gaplarda qozon, oʻchoq, gazoʻchoq kabi oshpazlik sohasiga oid professionalizmlar lingvokulturologik birlik vazifasini bajargan. Quyida ular izohini koʻrib oʻtamiz:

Oʻchoq – orqa va yon tomonlari yopiq boʻlib, ichiga oʻt yoqiladigan, ovqat pishirish uchun ustiga qozon oʻrnatiladigan oʻzbek milliy qurilmasi. Yer oʻchoq, loy oʻchoq, temir oʻchoq.[22.187-b]

Qozon – turli taomalar pishirish, tayyorlash yoki suv isitish uchun choʻyandan quyib tayyorlanadigan roʻzgʻor buyumi. Qozonga yaqin yursang, qorasi yuqadi.[22.232-b]

*Mirzaboyning Yunusobodda soldirayotgan imorati Yusufning nazarida bamisoli bir saroy edi. Oʻziyam naq oʻttizta usta, shunga yarasha yordamchi gʻimirlar edi. Yusufning tomboshiga loʻmboz bosish baxonasida kelishdi-yu ustalarga maʼqul tushib yana bir oyga qolishdi...* [23.138-b]

Ushbu parchada esa usta – forscha oʻgatuvchi, muallim. Biror kasb-hunar bilan shugʻullanuvchi malakali mutaxassis.Usta solmoq – usta, mutaxassis yollab ishlatmoq; [22.300-b] loʻmboz – tom yoki paxsaga bosish uchun yumaloqlangan bir boʻlak loy, umuman tomga bosish uchun tayyorlangan loy. [22.514-b] Loʻmboz qilmoq kabi professionalizmlar faqat milliylikni aks ettirgan.

– Yusuf, bolam, **yuvgʻichlar** keldi, – shivirladi Tursunoy xola. Yusufning vujudi yana titrab ketdi. Nazarida oʻgʻli oʻlmagan-u **gʻassollar** uni yuvib, dafn uchun kafanlab qoʻymoqchidek edilar. Tushga yaqin qabristonga kelishganda, goʻrni allaqachon qazib qoʻygan **goʻrkovlar** birovi **ketmon**, birovi **belkurak** koʻtargancha turardilar... [23.154-b]

Gʻassol – arabcha kir yuvuchi, oʻlik yuvuchi, aynan yuvgʻuchi.[22.440-b]

Ketmon – yuzi katta, orqa tomonida dasta suqib qoʻyadigan zoʻgʻatasi bor, yer chopish, loy qilish va b. ishlarda ishlatiladigan dastaki asbob.[22.358-b]

Belkurak – ayn. Bel. Ish qancha ogʻir boʻlmasin, bari bir ketmopn, belkurak asosiy ish quroli boʻlib qoladi. [22.222-b]

## XULOSA

Yuqorida izohlari keltirilgan professionalizmlar ham go'rkovlar tilida ishlatilib, o'zida ayni bir millatga xoslikni ko'rsatib turibdi.

Kasb-hunar leksikasiga oid so'zlar ishlatilish doirasi chegaralangan leksik qatlamga mansub bo'lib, badiiy asarda ma'lum uslubiy maqsadlarda yoki asar qahramonlari haqida to'la ma'lumot berish, kitobxonga uni yaqinroq tanishtirishda foydalaniladi. Bunday so'zlarning ma'no xususiyatlari esa lingvokulturologik birlik sifatida yuqoridagi kabi izohlarni talab qiladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. G'ulomov A, M.Asqarova. Hozirgi o'zbek adabiy tili I qism, – Toshkent,1980.127-b.
2. Jamolxonov H.A. Hozirgi o'zbek adabiy tili, – Toshkent,2002.174-b
3. Tursunov U va boshqalar.Hozirgi o'zbek adabiy tili, – Toshkent,1992.118-b
4. Berdialiyev A. O'zbek sinxron sotsiolingvistikasi, – Toshkent,2019.52,77,78,79-b.
5. Safarov Sh. Pragmalingvistika, – Toshkent,2008.
6. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik, – Toshkent,2007.
7. Nurmonov A. Tanlangan asarlar III jild, – Toshkent,
8. Nurmonov A. Tanlangan asarlar I jild, – Toshkent, 109-b.
9. Tursunov U. O'zbek terminologiyasi masalalari
10. Bagaliyev E. Hozirgi o'zbek adabiy tili leksik qatlami.
11. Dadaboyev D. O'zbek terminologiyasi. O'quv qo'llanma. – Toshkent,2019.
12. Ibrohimov S. Farg'ona shevalarining kasb-hunar leksikasi. II-III. – Toshkent: Fan,1959.
13. Abdiyev M.B. Sohaviy leksikaning sistem tahlili(Samarqand viloyati kasb-hunar terminlari asosida).Filol.fan d-ri...diss.aftoref. – Toshkent,2005
14. Abdiyev M.B. Sohaviy leksikaning sistem tahlili. – Toshkent,2004
15. Ismoilov G'. O'zbek tili terminologik tizimlarida semantik usulda termin hosil bo'lishi. Filol.fan d-ri...diss.aftoref. – Toshkent,2011.
16. Madvaliyev A. Termin va terminografiya xususida / O'zbek termonologiyasi va leksikografiyasi masalalari. – Toshkent, 2017
17. Safarov Sh, Toirova G. Nutqni sotsiopragmatik o'rganish asoslari. – Toshkent,2006.
18. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. –М., 1966.
19. Мадвалиев А.Ўзбек терминологияси ва лексикографияси масалалари.Т.:Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2017.-Б.28-30.
20. Ҳожиёв А. Термин танлаш мезони.1996.-Б. 22-25.
21. Ҳожиёв А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати.- Тошкент: Фан, 2002.
22. E.Begmatov, A.Madvaliyev, N.Mahkamov va b. O'zbek tilining izohli lug'ati I,II tom. – Toshkent:Fan,1981.186,222,300,323,335,359,514-b
23. Ulug'bek Hamdam. Muvozanat roman. – Toshkent,2003.109,137,138,197,154-b